

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILLIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АҲАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Akramov Xusan,

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: x.f.akramov@proacademy.uz

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN'ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048601>

ANNOTATSIYA

Insoniyat tafakkur tarixida aql-idrok markaziy o'ringa ega bo'lib kelgan. Har qanday ilmiy yondashuv, ijtimoiy tizimlar tahlili va diniy qarashlarning rivojida aql me'yor muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, islomiy tafakkurda aqlga asoslangan yondashuv – ratsionalizm – Qur'on, hadis va mutafakkirlar qarashlarida chuqur ildiz otgan. Mazkur maqolada islom tafakkurida ratsionalizm tushunchasining shakllanishi va sotsiologik tafakkurdagi ifodasi yoritilgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.), Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldunlarning hayotidagi ratsional tafakkur namunalari tahlil qilingan. Shuningdek, Maks Veberning maqsadli-ratsional harakat nazariyasi orqali hadislar asosida zamonaviy ijtimoiy tafakkur bilan uzviy bog'liqlik ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ratsionalizm, tafakkur, hadis, maqsadli-ratsional harakat, M.Veber, Ibn Xaldun, Forobiy, islom tafakkuri, sotsiologiya.

Акрамов Хусан,

доцент Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан,

доктор философии (PhD) по социологии

e-mail: x.f.akramov@proacademy.uz

РАЦИОНАЛЬНОЕ МЫШЛЕНИЕ: АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ ИСЛАМСКОЙ ТРАДИЦИИ И СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ

АННОТАЦИЯ

Разум всегда занимал центральное место в истории человеческой мысли. Критерий разума был важным методологическим инструментом в развитии любого научного подхода, анализа социальных систем и религиозных воззрений. В частности, в исламской мысли подход, основанный на разуме – рационализм – глубоко укоренён в Коране, хадисах и воззрениях мыслителей. В данной статье раскрыта концепция рационализма в исламской мысли и её проявление в социологическом мышлении. Проанализированы примеры рационального мышления в жизни Пророка Мухаммада (с.а.в.), Абу Насра Фараби и Ибн Халдуна. Также через теорию целенаправленного рационального действия Макса Вебера выявлена взаимосвязь между хадисами и современным социальным мышлением.

Ключевые слова: рационализм, мышление, хадис, целенаправленное рациональное действие, М.Вебер, Ибн Халдун, Фараби, исламская мысль, социология.

Akramov Khusan,

Associate Professor of the Academy
of Law Enforcement Agencies of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology
e-mail: x.f.akramov@proacademy.uz

RATIONAL THINKING: ANALYSIS IN THE CONTEXT OF ISLAMIC TRADITION AND SOCIOLOGICAL THEORIES

ABSTRACT

Reason has always occupied a central place in the history of human thought. The criterion of reason has been an important methodological tool in the development of any scientific approach, analysis of social systems and religious views. In particular, in Islamic thought, the approach based on reason – rationalism – is deeply rooted in the Koran, the Hadith and the views of thinkers. This article explores the concept of rationalism in Islamic thought and its reflection in sociological reasoning. Examples of rational thinking from the lives of Prophet Muhammad (PBUH), Abu Nasr al-Farabi and Ibn Khaldun are analyzed. Furthermore, Max Weber's theory of goal-oriented rational action is used to draw parallels between hadiths and modern social reasoning.

Keywords: rationalism, thinking, hadith, goal-oriented rational action, Max Weber, Ibn Khaldun, Farabi, Islamic thought, sociology.

KIRISH

Insoniyat tafakkur tarixida aql-idrok markaziy o'ringa ega bo'lib kelgan. Har qanday ilmiy yondashuv, ijtimoiy tizimlar tahlili va diniy qarashlarning rivojida aql me'yorlari muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, islomiy tafakkurda aqlga asoslangan yondashuv – ratsionalizm – Qur'on, hadis va mutafakkirlar qarashlarida chuqur ildiz otgan. Ushbu maqolada aynan islomiy tafakkurdagi ratsionalizمنىning shakllanishi, uning tarixiy namoyandalari va bu yondashuvning zamonaviy sotsiologik nazariyalari, xususan Maks Veber tomonidan ilgari surilgan maqsadli-ratsional harakat konsepsiyasi bilan qanday uyg'unlashuvi tahlil qilinadi.

Mazkur mavzu dolzarbligi shundaki, global axborot muhitida din va ilmning o'zaro munosabati, ijtimoiy tafakkurning manbalari, qaror qabul qilishda aql bilan iymonning o'zaro bog'liqligi tobora muhimlashib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekistonning yangilanish va ma'naviy yuksalish jarayonida ijtimoiy tafakkurning boy tarixiy ildizlarini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji kuchaymoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi – islom tafakkurida shakllangan ratsionalizm yondashuvi va zamonaviy sotsiologik tushunchalar o'rtasidagi nazariy bog'liqlikni yoritishdir. Bu jarayonda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.), Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldunning hayotiy faoliyatlaridan ratsional fikrlash namunalarini ko'rsatish orqali, Maks Veberning nazariyasi bilan o'zaro taqqosiy tahlil yuritiladi.

METODOLOGIYA

Islom tafakkurida aqlga tayanish, diniy bilim va hayotiy qarorlar asosida ratsional yondashuvni qo'llash qadimdan muhim o'rin tutib kelgan. Bu yondashuv Qur'oni Karim oyatlarida bevosita ifoda etilgan: "Ular yerda yurmaydilar mi?! Bas, ular uchun qalblar – tushunadigan narsa va quloqlar – eshitadigan narsa bo'lsa edi..." [1] (Qur'on, 22:46). Ushbu oyat insonni tafakkurga, aql bilan fikr yuritishga undaydi.

Islomiy ratsionalizm deganda, diniy haqiqatlarni tushunishda aql vositasini asosiy mezon sifatida tan oluvchi yondashuv tushuniladi. Unga ko'ra, Alloh tomonidan yaratilgan dunyo mantiqiy tartibga ega bo'lib, insonning aql-idroki orqali anglanishi mumkin. Bu g'oya, asosan, ilohiy va tabiat qonunlarini aql bilan tushunishga harakat qiluvchi mutakallimlar va faylasuflar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi [2].

Masalan, Abu Nasr Forobiy (870-950) o'zining falsafiy qarashlarida aqlni inson hayotining bosh vositasi sifatida ko'radi. U "Fozil shahar ahli" asarida insonning baxt-saodati unga berilgan aql orqali amalga oshishini bayon etadi: "Aql – bu insonni boshqa mavjudotlardan farqlantiruvchi eng ulug' ne'matdir" [3].

Forobiy aqlni ikki bosqichda ko'radi: tabiiy aql va faol aql. Tabiiy aql hayotiy tajriba bilan boyisa, faol aql falsafiy va ilohiy haqiqatlarni idrok etishga olib boradi. Bu qarashlar keyinchalik Ibn Sino va Ibn Rushd tomonidan yanada rivojlantirilgan.

Ibn Xaldun (1332-1406) esa o'zining mashhur "Muqaddima" asarida tafakkurni ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, inson tafakkur vositasida jamiyatda hukmron axloqiy qadriyatlarni angelaydi, tajribani umumlashtiradi va ijtimoiy ehtiyojlarga javoban harakat qiladi: "Inson o'z tabiati bilan ijtimoiy mavjudotdir" [4].

Ibn Xaldun tafakkurni uch shaklda tahlil qiladi: (1) kundalik foyda uchun zarur bo'lgan farqlovchi tafakkur, (2) ijtimoiy tajriba asosida shakllangan amaliy tafakkur va (3) abstrakt, mushohadaga asoslangan tafakkur. Ushbu tasnif zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy ongning shakllanishi bilan bevosita bog'lanadi.

Shuningdek, islom tafakkurida ratsional yondashuv yunon falsafasi bilan muloqot asosida yanada boyigan. IX asrdan boshlab, musulmon dunyosida yunon faylasuflarining asarlari arab tiliga tarjima qilina boshlagan. Bu tarjimalar asosida ilm-fanning, falsafaning va kalomning rivoji sodir bo'lgan. Masalan, Mutakallimlar – diniy aqidalarni aql asosida himoya qilishga urinuvchi olimlar – kalom fanining shakllanishiga asos solgan. Ular aql va vahiy o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qilishgan [5].

Islomdagi ratsional yondashuv diniy an'analarga tayanib, har bir iymon asosini aql bilan isbotlashga intilgan. Shu bilan birga, ko'plab olimlar aql bilan vahiy o'rtasida ziddiyat emas, balki uyg'unlik borligini ta'kidlab kelgan. Muhammad Asad, masalan, Qur'onni zamonaviy tafsir etishda ratsional yondashuvni asosiy vosita sifatida qo'llagan: "Aqlni inkor etgan ishonch zaif, ko'r-ko'rona bo'lishi mumkin" [6].

Islom tarixining ilk davrlarida ratsional tafakkur nafaqat ilmiy, balki amaliy-diniy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayoti eng yorqin dalillardan biridir. U zotning har bir harakati, qarori va targ'iboti chuqur tafakkur, oqilona yondashuv va kelajakni ilg'ab olish qobiliyatiga asoslangan edi. Qur'on Payg'ambarni "aql egalariga o'git beruvchi" [1] (Zumar surasi, 39:18) sifatida tasvirlaydi. Bu holat shuni anglatadiki, u nafaqat vahiyini yetkazuvchi, balki uni insoniy tafakkur bilan uyg'unlashtiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lgan.

Misol uchun, tarixchilarning fikricha, Muhammad (s.a.v.) o'zining payg'ambarlikdan oldingi hayotida ham oqilona yondashuvga asoslangan qarorlar qabul qilgan. Islomiy manbalarda keltirilgan mashhur voqealardan biri Ka'ba devoriga "Hajar al-Asvad" (Qora tosh)ni joylashtirish bilan bog'liq bo'lib, unda u taraflar o'rtasida kelishmovchilikni insof bilan hal qilgan. Ibn Hishom rivoyat qilgan bu voqeaga ko'ra, Quraysh qabilalari orasida qora toshni joylashtirish sharafiga kim loyiq degan tortishuv yuzaga kelganida, Muhammad (s.a.v.) murosali yo'l tanlab, barcha qabilalarning vakillariga teng ishtirok ettirish orqali nizoni hal qilgan [7].

Bu holat bugungi zamonaviy sotsiologiyada "ijtimoiy muvozanatni ta'minlash" deb ataluvchi tamoyilga mos keladi. U qaror qabul qilishda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ishonchni saqlash uchun o'ta ehtiyotkorlik va tafakkur bilan yondashgan. Shunday qilib, u shaxsiy aql, ijtimoiy muvozanat va qadriyatlar uyg'unligini namoyon qilgan.

Payg'ambarning Makkadagi faoliyati davomida ham ratsional tafakkur asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan. U Islomni qabul qilishni majburan emas, balki dalil va mantiq orqali targ'ib qilgan. Masalan, Najron nasroniylari bilan olib borgan muloqotida u dialogga asoslangan uslubni tanlagan, ularni haqiqatga chaqirishda mantiqiy dalillardan foydalangan. Bu voqea Qur'onda ham aks etgan [1] (Oli Imron surasi, 3:61) va u ilohiy haqiqatga chaqiriq bilan birga, mulohaza yuritishga da'vat sifatida ko'riladi.

Islom tarixshunosi Muhammad Hamidulloh qayd etishicha, Muhammad (s.a.v.) tomonidan olib borilgan barcha muomala va strategiyalar oqilona rejalashtirilgan, sabr bilan asoslangan va maqsadga yo'naltirilgan bo'lgan [8]. Bu ratsional tafakkurning eng yuksak namunasidir.

Badr jangiga oid holatni ham shunga misol keltirish mumkin. Ushbu jangdan oldin Payg'ambar (s.a.v.) sahobalar bilan maslahatlashgan, joy tanlashda strategik qaror qabul qilgan. Ibn Ishoqning "Sirat Rasulillah" asarida bu voqea tafsilotlari keltirilgan bo'lib, unda sahobiy Hubob ibn Munzirning tavsiyasi bilan harbiy joylashuv o'zgartirilgani aytiladi. Bu esa shuni anglatadiki, Payg'ambar (s.a.v.) vahiy egasi bo'lishiga qaramay, oqilona maslahatni qadrlagan, uni amaliy qarorlar asosiga aylantirgan.

Shuningdek, hadislar orqali ham u zotning ratsional tafakkurga urg'u berganini kuzatamiz. Masalan:

- "Har bir amal niyatga bog'liq" [9],[10] (Buxoriy, Muslim) degan hadisi orqali harakatlarning maqsadga asoslangan bo'lishi zarurligi ta'kidlangan.
- "Ilm izlash har bir musulmonga farzdir" [11] (Ibn Moja) degan hadis esa tafakkur, izlanish va ongli qaror qabul qilishga undaydi.

Ushbu manbalar shuni ko'rsatadiki, Muhammad (s.a.v.) nafaqat ilohiy ilhomga, balki aql-idrok, maslahat, ijtimoiy farosat va ehtiyotkorlikka tayanib ish yuritgan. Bu jihatlar uni nafaqat diniy rahbar, balki sotsiologik tafakkurga ega lider sifatida ham tarixda muhim shaxsga aylantirgan.

ASOSIY QISM

Islom intellektual merosining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Ibn Xaldun (1332-1406) o'zining "al-Muqaddima" asari bilan nafaqat tarix, balki sotsiologiya, iqtisod va siyosatshunoslikka ham katta hissa qo'shgan. U tafakkurni insonni hayvonot olamidan ajratib turuvchi asosiy belgisi sifatida ko'radi va uni ijtimoiy hayotning zarur sharti deb tushuntiradi: **"Inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir (madaniy hayvon), u yolg'iz yashay olmaydi"** [4].

Ibn Xaldun fikricha, tafakkur uch darajada yuzaga chiqadi:

1. **Farqlovchi tafakkur (al-fikr at-tamyiziy)** – bu kundalik ehtiyojlar, foyda va zarar o'rtasidagi farqni anglash imkonini beruvchi tafakkur turi. Ibn Xaldun bu haqda shunday deydi: "Odam o'zining turmush tarziga zarur bo'lgan vositalarni aniqlash uchun aqlini qo'llaydi" [4].
2. **Tajriba asosidagi tafakkur (al-fikr at-tajribiy)** – bu ijtimoiy hayotda shakllangan normalar va qoidalarni umumlashtirish, ularni ongli tarzda tushunish asosidagi tafakkur bo'lib, bugungi sotsiologiyada **ijtimoiylashuv** deb ataladi.
3. **Abstrakt tafakkur (al-fikr at-ta'ammuliy)** – bu umumiylik va mohiyatni anglashga qaratilgan tafakkur turi bo'lib, falsafiy va nazariy tafakkur uchun zamin yaratadi. U shunday yozadi: "Bu tafakkur hissiy idrok bilan emas, balki aqlning sof kuchi bilan amalga oshadi" [4].

Ibn Xaldunning tafakkur tasnifi sotsiologik tafakkurda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, zamonaviy sotsiologlar ushbu uchlikni amaliy, normativ va nazariy tafakkur turlari sifatida izohlaydilar [12] (Giddens A., Sociology, 1989).

Ibn Xaldunning ijtimoiy tartib va hayotiy ehtiyojlar orasidagi bog'liqlik haqidagi fikrlari ayniqsa diqqatga sazovor: **"Shaharlar va jamiyatlar odamlarning o'zaro yordam va ehtiyojlarini qondirish vositasidir"** [4]. Bu fikr zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda jamiyatni funksional tizim sifatida talqin qilishga yaqinlashadi.

Shuningdek, u ijtimoiy taraqqiyot va inqirozni muqarrar bosqichlarga ajratadi. Uning fikricha, har bir davlat yoki jamiyat **asabiyya** – ya'ni ichki birdamlik kuchi bilan yuksaladi, ammo bu kuch zaiflashgan sari jamiyat inqirozga yuz tutadi [4]. Bu sotsiologik model tarixiy jarayonlarni ratsional izohlashga xizmat qiladi.

Ibn Xaldun tafakkur va sivilizatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni muhim tahlil etgan birinchi musulmon mutafakkirlardan biridir. Uning bu boradagi yondashuvi E.Gellner yoki A.Toynbee kabi g'arbiy tarixchilar tomonidan ham e'tirof etilgan [13].

Shu bois, Ibn Xaldun nafaqat diniy, balki empirik, tajribaviy fikr yuritgan mutafakkir sifatida hozirgi kunda ham ijtimoiy tafakkurning ratsional asoslarini yaratgan buyuk olim sifatida qadrlanadi.

Sotsiologiya tarixida nemis olimi Maks Veber (1864-1920) inson harakatlarini tahlil qilishda ratsionalizmga asoslangan yondashuvni ilgari surdi. U har bir harakat ortida ma'no mavjudligini ta'kidlab, sotsiologiyaning vazifasi ushbu ma'noni tushuntirishdan iborat, deb hisoblaydi [14]. Veber ijtimoiy harakatlarni to'rt toifaga ajratadi: maqsadli-ratsional, qadriyatli-ratsional, an'anaviy va affektiv.

Ushbu toifalardan biri bo'lgan **Zweckrationalität** – ya'ni maqsadga yo'naltirilgan ratsional harakat – inson tomonidan ma'lum maqsadga erishish uchun ongli ravishda rejalashtirilgan va vositalar tanlangan harakatdir. Veber bu haqda shunday deydi: **“Bunday harakatda individ barcha mavjud vositalarni baholaydi, eng samaralisini tanlaydi va maqsad sari ongli harakat qiladi”** [15].

Bu yondashuv hadislar mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Islomda hadislar faqat diniy ko'rsatma emas, balki ijtimoiy hayot, iqtisodiy faoliyat va aqliy qarorlar uchun amaliy pand-nasihat sifatida xizmat qiladi. Masalan:

- Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: **“Amallar niyatga bog'liqdir. Har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi”**[9] (Imom Buxoriy, Sahih, 1-jild, hadis №1). Bu hadisda niyat – ya'ni harakatning ongli maqsadga yo'naltirilganligi – asosiy mezon sifatida belgilanadi. Bu aynan Veber ta'riflagan maqsadli-ratsional harakatga mos keladi.

- Yana bir hadisda aytiladi: **“Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayolga farzdir”** [11] (Ibn Moja, Sunan, hadis №224). Ilmiy izlanish, bilim orttirish va uni maqsad sari yo'naltirish Veber nazariyasida ratsional harakatning kognitiv asosi sifatida talqin qilinadi.

- Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: **“Agar kimdir bir daraxt ekib, undan odam yoki hayvon foydalansa, bu uning uchun sadaqa bo'ladi”**[10] (Imom Muslim, Sahih, hadis №1553). Bu hadisda mehnat, samaradorlik va foydalilik – ya'ni iqtisodiy foyda orqali ijtimoiy manfaatga erishish nazarda tutilgan. Veber bu holatni kapitalistik ratsional harakat modeli bilan bog'laydi: **“Foyda keltiruvchi, tartibli, rejalashtirilgan faoliyat – sivilizatsiyaning negizidir”** [14].

Bundan tashqari, Veber modernizatsiyaning madaniy ratsionalizatsiya deb ataydi. Unga ko'ra, diniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va iqtisodiy xulq ratsional asosda uyg'unlashganida ijtimoiy tartib paydo bo'ladi. Veber bu holatni shunday izohlaydi: **“Maqsadli ratsionallik nafaqat iqtisodda, balki din, san'at, huquq va davlat boshqaruvida ham asosiy me'yorga aylanadi”** [16].

Rasululloh (s.a.v.) tomonidan olib borilgan siyosiy va harbiy strategiyalar ham ushbu ratsional tamoyillar asosida shakllangan. Masalan, Badr jangiga qadar u zot sahobalar bilan maslahatlashgan, zaxira suv manbasiga joylashish, kuchlarni joylashtirish kabi qarorlarni mantiqiy tahlil orqali qabul qilgan [17]. Veber nazariyasiga ko'ra, bu turdagi harakatlar – oqibatini hisoblagan, ijtimoiy vositalarni tahlil qilgan, amaliy natijaga qaratilgan harakatlar – aniq maqsadli-ratsional faoliyat turidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Veber tomonidan ishlab chiqilgan ratsional harakat tushunchasi islomiy hadislar mazmunida o'z aksini topgan. Harakatning niyatga bog'liqligi, ilm va mehnatga undovchi hadislar, moliyaviy rejalashtirishga doir ko'rsatmalar – bularning barchasi Veberning zamonaviy g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Demak, hadislar shunchaki axloqiy targ'ib emas, balki zamonaviy sotsiologik yondashuvlar bilan hamohang tafakkur tizimi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Islom tafakkuri va zamonaviy sotsiologik nazariyalar o'rtasida chuqur va mantiqiy uyg'unlik mavjud. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.), Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldun hayotida ko'rinadigan ratsional fikrlash namunalari, bu tafakkur Islomning ilk davridan boshlab aqlga tayanishga ustuvor e'tibor berilganini ko'rsatadi. Ularning fikrlarida aql faqat diniy masalalarda emas, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda ham markaziy vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Ibn Xaldunning tafakkur tasnifi – farqlovchi, tajriba asosidagi va mushohadaga asoslangan tafakkur – sotsiologik ongning shakllanishi jarayonini tushunish uchun bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. U o'z asarlarida jamiyat va tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqani empirik asosda tahlil qiladi, bu esa uni zamonaviy sotsiologiyaning peshqadami sifatida tan olishga asos bo'ladi.

Maks Veber tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli-ratsional harakat konsepsiyasi islomiy hadislar mazmuni bilan bevosita uyg'unlashadi. Har bir ishning niyatga bog'liqligi, ilmga intilish, mehnat va sabrga chaqiriqlar ratsional faoliyatning asosiy mezonlari sifatida hadislar orqali mustahkamlangan. Bu shuni anglatadiki, hadislar nafaqat diniy-me'yoriy axborot, balki ongli, ijtimoiy faoliyatni tashkil qilishda amaliy yo'nalish beruvchi manba sifatida ham o'rganilishi mumkin.

Zamonaviy islomiy tafakkurda ratsionalizmga asoslangan yondashuv faqat teologik jihatdan emas, balki ijtimoiy nazariy yondashuv sifatida ham yuksak qiymatga ega. Diniy matnlar (xususan hadislar) sotsiologik analiz uchun zamonaviy metodologik asoslarga ega manba sifatida talqin qilinmog'i lozim. Bu esa diniy tafakkurni empirik ijtimoiy tadqiqotlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Qur'on. Quran_uzbek_translation_Abdulaziz_Mansur.pdf. www.ziyouz. com
2. Nasr S.H. Science and Civilization in Islam. (Harvard University Press, 1968).
3. Forobiy A.N. Fozil shahar ahli (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashri, Toshkent, 2006).
4. Ibn Xaldun. Muqaddima. (I, II, III, IV qism) Arabcha matn va tarjima. (Bayrut: Dar al-Fikr, 2002).
5. Frank R.M. Philosophy, Theology and Mysticism in Medieval Islam. (Ashgate, 2005).
6. Asad M. The Message of the Qur'an. (Gibraltar: Dar al-Andalus, 1980).
7. As-Sirat an-Nabawiyya, Ibn Hishom. [https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Sirah_al-Nabawiyyah_\(Ibn_Hisham\)?ysclid=mbp1s2062y124930560](https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Sirah_al-Nabawiyyah_(Ibn_Hisham)?ysclid=mbp1s2062y124930560)
8. Hamidullah M. Muhammad Rasulullah. (Idara-e Islamiyat, Lahore, 1980).
9. Muhammad (s.a.v.) hadislaridan: Imom Buxoriy, Sahih al-Buxoriy;
10. Muhammad (s.a.v.) hadislaridan: Imom Muslim, Sahih Muslim;
11. Muhammad (s.a.v.) hadislaridan: Ibn Moja, Sunan Ibn Majah.
12. Giddens A., Sociology, 1989
13. Gellner E. Muslim Society. (Cambridge University Press, 1981).
14. Weber M. Economy and Society. Ed. Guenther Roth and Claus Wittich. (University of California Press, 1978).
15. Weber M. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Tr. Talcott Parsons. (Routledge, 2001 [1905]).
16. Weber M., Collected Methodological Writings, 2012
17. Ibn Ishoq, Sirat Rasulillah. [https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Sirah_al-Nabawiyyah_\(Ibn_Ishaq\)?ysclid=mbp2wqeu3p262496998](https://en.wikipedia.org/wiki/Al-Sirah_al-Nabawiyyah_(Ibn_Ishaq)?ysclid=mbp2wqeu3p262496998)

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000